

**MUSIQA TINGLASH O'QUVCHILARDA MUSIQIY IDROKNI
SHAKLLANTIRISHI OMILI**

Axmedova Nilufar

*Samarqand Davlat pedagogika instituti
Musiqqa san'ati yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi musiqqa o'qituvchilari va maktabgacha ta'lim tarbiyachi-murabbiylari uchun musiqqa psixologiyasining ahamiyatini ochib beradi. Musiqqa psixologiyasi pedagogik va tarbiyaviy faoliyatning muhim qismi bo'lib, faoliyat, bilim jarayonlari, hissiy-irodaviy muhit va inson shaxsiyatining psixologik mohiyatini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, musiqqa psixologiyasi musiqachi-ijrochi, murabbiy va pedagoglarga musiqqa san'ati va uni o'qitishning nozik jihatlari haqida bilim beradi.*

Kalit so'zlar: *musiqqa psixologiyasi, musiqqa ta'limi, pedagogika, tarbiya, hissiy kechinmalar.*

Annotation: *This article highlights the importance of music psychology for music teachers in secondary schools and educators in preschool institutions. Music psychology is a crucial part of pedagogical and educational activities, helping to understand the psychological essence of activity, cognitive processes, emotional-volitional environment, and human personality. In addition, music psychology provides musicians, coaches, and educators with knowledge about the nuances of musical art and its teaching methods.*

Keywords: *music psychology, music education, pedagogy, education, emotional experiences.*

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi musiqqa o'qituvchilari, maktabgacha ta'lim tarbiyachi -murabbiylari uchun musiqqa -psixologiyasi g'oyatda muhim, uning pedagogik va tarbiyaviy faoliyatining eng nozik va jiddiy qismi sanaladi. Musiqqa psixologiyasi umumiy psixologiyaning tarkibiy qismi va mantiqiy davomi bo'lib, umumiy psixologiyaga nisbatan ko'p uchrovchi tushunchalar: faoliyat, bilim jarayonlari, hissiy-irodaviy muhit, inson shaxsiyati individual xususiyatlarining psixologik mohiyatini ochib berishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Har qanday musiqachi-ijrochi, murabbiy, pedagog o'z faoliyatida xox bevosita,



xox bilvosita bo'lsin, psixologik omillarga to'qnash keladi, his qiladi, boshdan kechiradi. Bu esa ularning har qaysisidan kasbiy mutaxassisligi bo'yicha fanlardan zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish barobarida psixologik bilim va tushunchalarga va yetarli tayyorgarlikka ega bo'lishlarini taqozo etadi.

Musiqqa psixologiyasi musiqachi-ijrochi, murabbiy, pedagoglarga musiqqa san'ati va uni o'qitilishiga daxldor holatlar, uning nozik va ayni paytda e'tiborga olinishi zarur va shart bo'lgan jihatlari haqida zarur bilim va tushunchalarni olishga yordam beradi. Bunday bilim, tushunchalarsiz musiqqa pedagogikasini ham mufassal fan sifatida tasavvur etib bo'lmasligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir.

Bizga ma'lumki, har qanday musiqqa asari paydo bo'lishi, yaratilishi muayyan shaxs-ijodkor, bastakor-kompozitor nomi bilan bog'liq bo'ladi. Musiqqa asarining g'oyaviy-badiiy mazmunida ijodkor shaxsining hissiy kechinmalari, uy va orzulari, intilishlari, tahliliy mushohadasi, tasavvurlar parvozi, musiqiy asarni yaratish va uni ustida ishlash holati, konsertlardagi ijrosi bola qalbida emotsional his-tuyg'u va o'ziga xos kechinmalarni paydo qiladi. Bola yuqori badiiy ijod namunasi bo'lgan asarni mahoratli san'atkor, xonanda yoki cholg'uchi ijrosida tinglaganda unda shu asarga nisbatan taasurotlar, fikr-mulohazalar paydo bo'ladi. Asar ijrosidan ta'sirlanish musiqaning qanday yangrashi, xonanda va sozandaning uni qay darajada ijro etishiga, mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Bolalarning musiqqa asarlarini, ayniqsa milliy musiqamizni tinglash va idrok etishga tayyorlash uchun hozirgi kunda ta'lim muassasalarida qanday ishlar olib borilayapti. Bunda eng avvalo musiqqa tinglash jarayonini yugori darajada ham pedagogik ham metodik jihatdan tayyorlash, zarur texnik, ko'rgazmali vositalarni oldindan tayyor qilib qo'yish kerak bo'ladi. Bu narsalarni muhayyo qilish musiqqa o'qituvchisi oldiga muayyan vazifalarni hal etishni talab etadi. Musiqiy asarni eshittirishdan oldin o'gituvchi albatta ushbu asar mavzusi, g'oyaviy-badiiy mazmuni bo'yicha suxbat o'tkazishga tayyorlanishi kerak bo'ladi. Suhbat giziqarli, ixcham, fakt va dalillarga asoslangan bo'lishi, uning ta'sirchanligini kuchaytiradi. Suhbatda asarning xalq musiqqa merosi, yoki kompozitor ijodiga mansubligi, mualliflari hagidagi ma'lumotlarga o'rin berilishi shart hisoblanadi.

Taniqli pedagog va psixologlarning fikrlariga ko'ra musiqqa asarini tinglashdan avval o'tkaziladigan suhbat o'quvchilarni ruhiy jihatdan asarni yetarli darajada idrok etishga tayyorlaydi. Bolalar uchun yogimli kuy, uning



nafis ijrosi bolalarda hayotiy taasurolarni uyg'otadi. O'qituvchining asarning janri, yaratilishi tarixi, ijodkorlari, unda ifodalangan badiiy mazmun asarni to'laqonli idrok etilishiga zamin yaratadi. Musiqa asarini tinglashdan oldin uni yaratilishi, davri, kompozitori, hofiz, bastakor ijodi, mohir ijrochilari, shuningdek, go'shiq yoki kuy bilan bog'liq tarixiy voqyealar haqida o'tkazilgan suhbat musiqani idrok etishda muhim jarayon hisoblanadi.

Tinglangan musiqani bolalar emotsional va ruhan idrok etishi va o'qituvchi bunga bolalarni o'rgatib borishi kerak bo'ladi. Bizga ma'lumki, musiqa darslarida eng ko'p vaqt go'shiq kuylash faoliyatiga ajratilgan. Chunki, qo'shiq kuylash, jamoa bo'lib kuylash birinchi navbatda bir qator vokal-xor malakalarini talab qiladi. Bunday vokal-xor malakalarini lozim darajada egallamasdan qo'shiqning badiiy-emotsional ta'sirchanligiga erishib bo'lmaydi. Qo'shiq kuylash jarayonida ham bolalar avvalo uni o'qituvchi ijrosida yoki texnik vosita orgali tinglashadi. Musiqa o'qitishning metodikasi talab-qoidalariga ko'ra musiqa o'qituvchisi qo'shiqni o'rgatishdan avval, o'quechilarga uni o'zi ijro etib berishi kerak. Chunki, har qanday jonli ijroning ta'siri texnik vosita (magnitofon, video, audio yozuvlar) yordamida eshitilganga qaraganda ta'sirliroq bolishi tajribalarda aniqlangan. Lekin, shuni unutmash kerakki, bolalarning musiqiy asarni (qo'shiqni) eshitish va idrok etishlari uchun ijroning o'zi yetarli bo'lmaydi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi bolalarni o'zaro kuylaydigan qo'shiqlaridan murakkabroq asarlarni (janr, xarakter jihatidan) tinglashga o'rgatishi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham musiqa o'qituvchisining o'zi mahoratli ijrochi va vokal, milliy ashulachilik mahorati va yoqimli ovozga ega bo'lishi musiqa tinglash faoliyatining samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Afsus bilan e'tirof etish mumkinki, hozirgi paytda barcha musiqa o'qituvchilari bunday imkoniyatga ega emas.

Lekin, mahoratli, pedagogik-psixologik tayyorgarlikka ega bo'lgan, musiqa o'qitish metodikasidan yaxshi xabardor musiqa o'qituvchisi turli rebuslar, didaktik o'yinlar, texnik vositalar, videoyozuvlar, kerak bo'lganda kompyuterlardan foydalangan holda bolalarni musiqa san'atiga, tinglangan va kuylangan go'shiqqa nisbatan emotsional holatda musiqani eshitish va idrok etilishiga o'rgata oladi. Musiqa madaniyati fanini o'qitishda zamonaviy musiqa o'qituvchisi barcha imkoniyatlardan foydalangan holda bolalarning musiqa asarining asl mohiyatini tushunishlari, uni mazmun-mohiyatini anglashlari uchun zarur texnik, ko'rgazmali vosita va metodik ish usul, shakllaridan samarali foydalana olishi lozim.



Lekin, tajribali pedagoglarning ilmiy tadqiqotlariga ko'ra magnitofon yoki texnik vosita orqali eshitilganga nisbatan musiqa o'qituvchisining o'zi jonli tarzda ijro etgan musiqiy asar bolalarda ko'proq taassurot qoldiradi. Emotsional ta'sir kuchi yuqoriroq bo'lar ekan.

Musiqa madaniyati darslarida qo'shiq kuylash (jamoaviy ijrochilik) yetakchi o'rin tutadi. Bu faoliyat turi boshqa faoliyat turiga nisbatan yagin va tushunarlidir. Har qanday bola qo'shiq kuylashga befarq bo'lmaydi. Yaxshi go'shiq o'zining ohangini yoqimliligi, milliy koloriti, mavzusini tushunarlligi, bolalar didi, dunyoqarashiga mosligi, o'yin-raqsboqligi bolalarni quvontiradi, kuylashga ishtiyoqini oshiradi, tarbiyaviy ta'sir etadi.

Aytish joizki cholg'u kuylariga nisbatan ham go'shiq kuylash kuchli emotsional ta'sir kuchiga ega. Chunki, qo'shiqda matn va musiqaning badiiy birligi, uyg'unligi namoyon bo'ladi. Qo'shiq kuylash bola shaxsi tarbiyasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq bola aqliy kamolotini o'sishiga, dunyoqarashini kengayishiga, olam va atrofidagi barcha narsalar haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Maktab ta'limida go'shiq kuylash jarayonida o'quvchilar musiqani nisbatan chuqurroq idrok etadilar. O'z his tuyg'ulari va kechinmalarini faolroq ifodalaydilar. Qo'shiq matnini bolalarboqligi musiqa mazmunini tushunish va kuyni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Ko'shiq kuylashda bolalarda musiqiy gobiliyatlar ham rivojlanib boradi: Musiqiy eshituv, musiqiy sezgi, xotira, ritmni his qilishi, metr, lad hissi kabilar shakllanadi. Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash faoliyatida o'qituvchi o'quvchilarni ijrochilik malakalarini rivojlanishiga e'tibor qaratishi zarurdir.

O'quvchilarning jamoa bo'lib kuylashda musiqani, o'rtoqlari ovozi va o'z. ovozi eshitishi, boshqarishi, o'qituvchi ijrosini eshitib, kuzatishi hamda ular bilan bahamjihat jo'rnavozlik qilishi, shunga intilishi kerak bo'ladi va bu doimiy ravishda o'qituvchi e'tiborida bo'lishi lozim bo'ladi. Ana shundagina sinf jamoasi ijrosida birlik, uyushqoqlik, o'zaro do'stlik hislari tarbiyalanadi.

Qo'shiq kuylashning bola ruhiyatiga badily ta'sir qilishi barobarida ularni jismoniy o'sishi va rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Jamoaviy ijro mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat-etibori, ongi va faolligi oshadi, musiqiy xotira yaxshi rivojlanadi, vokal xor malakalari shakllanadi. Jamoa va o'z ijrosidan zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Bu jarayonda so'z ma'nosi va musiqa ohangi chuqurroq idrok etiladi.



Qo'shiq kuylash bolalarni nutqi rivojlanishiga ham qulay imkoniyat yaratadi. Qo'shiq so'zlarini ohangga mos ijro etilishi tufayli bolalarda so'zlarni bo'g'inlab o'rganishi tufayli ularni to'g'ri diksiya gilish malakasi rivojlanadi.

Musiqa asarlarini ijro ham idrok etish hissi va ruhiy kechinmalar bilan chambarchas bog'liq ravishda sodir bo'ladigan har qanday kechinma esa ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda o'ziga xos yuksak va oliyanob his tuyg'ularini uyg'otadi, ularni "odamiy va mehribon" qilib tarbiyalab boradi.

Har bir san'at turi singari musiqa san'atini tushunish va to'la idrok eta olish uchun kishi muayyan badiiy va umumiy kamolot darajasiga erishgan bo'lmog'i lozim. Ma'lum bir musiqa asarida voqyea va hodisalar, yoki biror predmet, narsa, daraxt, gul, hayvonlar ganchalik hayotiy, keng, chuqur, jozibali tasvirlangan bo'lsa, uni to'laligicha idrok etish va tushunish uchun kishidan shunchalik maxsus ma'lumot va aqliy kamolot talab etiladi.

"San'atdan chinakam zavqlanish, estetik ozuqa olishni istagan har bir kishi badiiy jihatdan ma'lumotli bo'lishi lozim", aks holda "musiqa asarini g'oyaviy mazmunini, uning xarakteri, shakli, lad-tanalligi, o'lchovi va tempi kabi janriy xususiyatlarni to'la idrok etaolmasligi tabiiy.

Xulosa

Aytish joizki, musiqa darslari o'z tabiatiga ko'ra sermazmun va murakkab. Musiqa asarini (tinglash va kuylash uchun tanlangan) idrok etilishiga erishish juda ko'p pedagogik, psixologik omillarni, vositalar, metodlardan o'z o'rnida mohirona foydalanishni talab etadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bu o'qituvchidan katta mahoratni talab giladi. O'quvchilarni bu yoshida diqqat, xotira, idrok imkoniyatlari bir qadar cheklangan bo'ladi. Shuni nazarda tutgan holda o'qituvchi darsda turli-tuman harakatlar rebus, didaktik o'yinlar, dars shakllaridan, o'yin uslublaridan keng foydalanishi lozim.

Har bir dars ko'rgazmali, texnik jihozlar bilan tashkil etilgan maxsus sinflarda olib borilishi lozim. Ayni paytda darsda ta'lim va tarbiya birligini tashkil etish, musiqa orqali o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik tushuncha va idrok, estetik malaka va madaniyatni shakllantirib borish zamonaviy musiqa o'qituvchisining zimmasiga qo'yilayotgan eng muhim ijtimoiy buyurtmalardan sanaladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Levitin, D. J.” (2006). “This Is Your Brain on Music: The Science of a Human Obsession.” Dutton.
2. “Seashore, C. E.”(1967). “The Psychology of Music.” Dover Publications.
3. “Levitin, D.” (2007). “Music, Thought, and Feeling: Understanding the Psychology of Music.” Lawrence Erlbaum Associates.
4. “Hunter, C., & Levin, R. H.” (2009). “The Cognitive Neuroscience of Music.” Oxford University Press.
5. “Thompson, W. F.” (2014). “Music, Mind, and Brain: The Neuropsychology of Music.” Springer.
6. “Juslin, P. N., & Sloboda, J. A.” (2010). “Handbook of Music and Emotion: Theory, Research, Applications.” Oxford University Press.

